

## TURIZMGA OID LEKSIKA HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR

**Abduxalilova Gulbahor Karabayevna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: [abdukhalilovagulbahor@gmail.com](mailto:abdukhalilovagulbahor@gmail.com)

O'zbekiston, Toshkent shahri ORCID 0000-0002-1679-8956

**Annotatsiya.** Ushbu maqola turizmga oid leksika haqidagi nazariy qarashlar borasida bo'lib, unda muallif o'zbek tilshunosligida turizm sohasi leksikasi doirasida kasbiy termin va sohaviy leksikani tizimlash, ularni unifikatsiyalash, turizm sohasiga oid leksik qatlamni pragmatik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish, sohaviy leksikaning qo'llanilishi va rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash ilmiy-nazariy zaruratga aylanganligi haqida so'zlaydi. Maqolaning kirish qismida turizm tushunchasi ta'riflangan bo'lib, mamlakatda turizm istiqbollari, turizm leksikasi sohasida o'rganilgan adabiyotlar tahlili va uslublar haqidagi fikrlarini bayon qilgan. Muallif qo'llanilishi tegishli soha doirasi bilan chegaralangan va umumadabiy xarakterga ega so'z va iboralar haqida ilmiy mulohasalar olib borgan va turizm terminologiyasi lingvistik adabiyotlarda asosan struktur-semantik tavsiflar, shakllanish manbalari, o'zga tillarga tarjimasi va leksikografik tahlili yo'nalishlarida tadqiq qilingan degan xulosaga kelgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy termin, sohaviy leksika, umumxalq tili leksikasi, turizm terminlari, tilning leksik sathi, nomlovchi birliklar, semiotik tarkib, chegaralangan so'z va iboralar, turizm terminologiyasi, uslubiy qonuniyatlar.

Dunyo tilshunosligida turizm sohasiga oid leksikani bir tomondan ilmiy terminologiya, ikkinchi tomondan umumxalq tili leksikasi bilan mutanosibligini ushbu soha, struktur-semantik va madaniy belgilari, uslubiy qo'llanish qonuniyatlari, pragmatik va lingvomadaniy o'ziga xosligi masalalarini yechish an'anaviy lingvistik tahlil usullari bilan birgalikda zamonaviy yangi metod va yondashuvlarni taqozo etmoqda. O'zbek tilshunosligida turizm sohasi leksikasi doirasida kasbiy termin va sohaviy leksikani tizimlash, ularni unifikatsiyalash, turizm sohasiga oid leksik qatlamni pragmatik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish, sohaviy leksikaning qo'llanilishi va rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni aniqlash ilmiy-nazariy zaruratga aylandi.

Mamlakatimizda turizm mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab iqtisodiy o'sishning muhim yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, unga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor berilgan. Sohani rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratilgan, hukumat tomonidan tegishli qonun hujjatlari qabul qilingan va bu jarayon hozir ham faol davom etmoqda. Binobarin, bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy modernizatsiyalash jarayonida turizm va mehmondo'stlik sohasida uchrayotgan muammolar orasida, mehnat bozori talablariga mos keladigan malakali kadrlarni tayyorlash eng muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Har bir davlat iqtisodiyoti va jamiyat hayotida turizm bilan bog'liq jarayon muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilining izohli lug'ati'da turizm tushunchasi "1. Ham dunyoni ko'rish, bilish, o'rganish, ham dam olish maqsadida tashkil etiladigan sayr-sayohat. 2. Organizmni jismoniy chiniqtirish maqsadida uyushtiriladigan jamoaviy yurishlar, safarlar" qabilida ta'riflangan [1]. Turizm va sayohat so'zi birgalikda sinonimik qatorni hosil qiladi.

**TURIZM** – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi) [2].

Shuningdek, keltirilgan ta'riflarga tayangan holda biz turizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif beramiz: **turizm** – milliy iqtisodiyot uchun yuqori daromad keltiruvchi juda istiqbolli sohalaridan biri sifatida, shaxslarning doimiy yashash joyidan tashqariga sayohat qilishini o'z ichiga oladi. Bu jarayon, insonlarning jismonan va ruhan yangilanishiga imkon beruvchi faol dam olish turlaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, turizm nafaqat sayohat va dam olish, balki u muntazamlararo va xalqaro do'stlik aloqalarini mustahkamlaydi, xalq diplomatiyasini rivojlantiradi, hududlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtiradi [3].

Butun dunyoda jadal rivojlanayotgan turizm industriyasi o'z tiliga ega bo'lganligi sababli so'ngi o'n yillikda turizm sohasi bo'yicha lingvistik tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Turizm terminlari va leksikasi borasida X.D. Paluanova, Y. Yaxshiyeva, Z.R. Sobirova, N.I. Yakubova va A.Sh. Xolboboyeva tomonidan turizm leksikasiga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan [4]. Rossiyalik olimlar O.R. Bondarenko, V.A. Maslova, Ye.Ye. Menshikova, N.V. Filatova, N.A. Tyulenova, S.A. Pogodayeva, L.V. Vinogradova, E.T. Belan, jahon tilshunosligida Erik Koen, Robert L. Kuper, Adam Vilson, Semyuel Djonson, Robert Berchfield, Xovard Djekson, Tom Makartur, Ingo Plag kabi olimlar ingliz leksikografiya rivojiga salmoqli xissa qo'shgan.

Termin tilning leksik sathining ajralmas uzviy qismi bo'lib, u o'zining ichki semantik tarkibida katta axborot hajmini saqlash bilan boshqa so'zlardan farqlanishi va umumiste'moldagi ko'p ma'noli so'zlar muayyan soha terminologiyasiga ko'chganida faqat bir ma'noni anglatib, terminlik vazifasini bajara boshlaydi [5].

V.P. Danilenko termin tushunchasi "sohaga tegishli bo'lgan, definisiyaga asoslangan maxsus tushunchani anglatuvchi so'z va so'z birikmasi" ekanligini ta'kidlagan holda adabiy tilga tegishli bo'lgan so'zning "semantik o'zgarish" natijasida termin tizimiga kirishi mumkinligini qayd etgan"[6].

V.P. Danilenko terminlarning umumadabiy til leksikasidan bir necha jihatdan prinsipial ajralib turishini qayd etadi va ularni quyidagi guruhlariga bo'ladi:

- semantik jihatdan (terminlar faqat maxsus tushunchalarni nomlaydi, ulardan har biri mazmunan original);
- funksional jihatdan (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga ham ega);

- tarqalish sohasi bo'yicha (ayrim terminlar til sohiblariga ma'lum darajada maqbul bo'lsa-da, adabiy til tarkibidan chiqqanligi sharti bilan faqat fan tiliga, uning leksik tizimiga mansub bo'ladi;
- terminlar bevosita vazifasiga ko'ra faqat professional muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi;
- terminlarni shakllantirish manbalari, usul va vositalari bo'yicha (terminlar umumadabiy manbalarga tayangan bo'lsa-da, ixtisoslashgan resurslariga ham egaki, ular umumadabiy tilning boshqa turlarida qo'llanilmaydi);
- nomlovchi birliklarning semiotik tarkibi bo'yicha (terminologiyada umumlisoniy birliklar bilan birga, verbal ifodalash vositalari doirasidan tashqariga ham chiqadi, bunda ramzlar keng ishlatiladi) [7].

Darhaqiqat, terminlar: leksik birlik; nomlash va ta'rif berish xususiyatiga ega; leksik-semantik jarayonlar terminlarga xosdir.

Turizm terminlari turizm sohasida iqtisodiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari o'zining maxsus qirralarida hamda uning maxsus sohasini, inson faoliyatining umumiy qonuniyatlarini namoyon qiluvchi, hamda turistlik tashkilotning aniq faoliyati, turistlik maxsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilish xususiyatlarini nomlash uchun qo'llaniladigan maxsus so'z va so'z birikmalaridir.

Turizm terminlari tariqasida quyidagi o'zbek va ingliz tillaridagi misollarni keltirish mumkin:

*turizm industriyasi – tourism industry*  
*turoperator – tour operator*  
*turagentlik – travel agency*  
*mehmonxona xo'jaligi – hotel industry*  
*arxitektura yodgorligi – architectural monument*  
*xalqaro turizm – international tourism*  
*ekologik turizm – ecological tourism*  
*xorijiy ekoturizm – foreign ecotourism*  
*turizm infratuzilmasi – tourism infrastructure*

Shuni ta'kidlash joizki, turizm leksikasi til tizimida alohida o'rin egallaydi. U bir tomondan tegishli sohaning maxsus leksikasi, terminologiyasini o'zida aks ettirsa, ikkinchi tomondan kundalik umumadabiy til tarkibida faol qo'llaniladi, chunki turizm inson hayotning ajralmas atributiga aylangan. Bundan kelib chiqqan holda turizm leksikasini qo'llanilishi nuqtayi-nazaridan quyidagi turga ajratsa bo'ladi:

1) qo'llanilishi tegishli soha doirasi bilan chegaralangan so'z va iboralar:

*turizm industriyasi; turistik xizmatlar; turoperator; aktiv va passiv turizm; turizm marshrutlari; turizm iqtisodiyoti turistik sayohat; xalqaro turizm; turizm sug'urtalash; turizm infratuzilmasi; turizm xavfsizlik; turist, gid; turistik hudud va h.k.*

Mazkur guruhga mansub turizm leksikasi asosan bevosita kasbiy, shuningdek ilmiy va qisman, rasmiy-idoraviy nutqda ishlatiladi.

**Turizm iqtisodiyoti** aholining kattagina qismini turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida mazkur xo'jalik sohasini barcha darajalarida **turistik mahsulotni** ishlab chiqaradigan, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qiladigan kishilarning xulq-atvorini o'rganadi[8].

2) umumadabiy xarakterga ega so'z va iboralar:

*jozibador turistik mahsulotlar; sayohat; mehmonxona; dam olish; bo'sh vaqt; rohatlanish; orom olmoq; kayfiyat, qiziqarli, hayajonli joylar va h.k.*

*... sayohatchilarni oldindan rejalashtirilgan marshrut bo'ylab **qiziqarli va hayajonli joylarga** olib boradigan gid bilan sayohat qiladilar[9].*

Ushbu guruhni tashkil etuvchi turizm leksikasini tilning barcha funksional uslublariga xos nutqda uchratsa bo'ladi. Masalan:

*Sohibjon **damini olib**, yana yo'lga ravona bo'libdi.* (Zumrad va Qimmat, o'zbek xalq ertaklari to'plami). ***Yuraging yozilsin, deb tomoshaga olib kelyapman dedi Ota-mirza.*** (X. To'xtaboyev, Felyetondan keyin).

Misollardan ko'rinib turganidek, turizm leksikasida qo'llanilishi tegishli soha doirasi bilan chegaralangan so'z va iboralardan iborat, ammo, umumadabiy xarakterga ega so'z va iboralar ham salmoqlidir. O'rganilgan ilmiy ishlar tahlilidan xulosa qilsak, turizm terminologiyasi lingvistik adabiyotlarda asosan struktur-semantik tavsifi, shakllanish manbalari va o'zga tillarga tarjimasi va leksikografik tahlili yo'nalishlarda tadqiq qilingan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 21.
2. Amonboev M., Jurayeva N.A. Turizm iqtisodiyoti. O'quv qollanma. Toshkent. 2019. – B.156.
3. Винокуров М.А. Что такое туризм? // Известия Байкальского государственного университета. 2004, № 3. – С.1-3.
4. Даниленко В.П. Язык для специальных целей // Культура русской речи и эффективность общения. – М., 1996. – С. 4.
5. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 24.
6. Палуанова Х.Д. Инглиз, ўзбек, рус ва қорақалпоқ тилларида экологик терминларнинг деривацион-семантик принциплари: Филол. фанл. докт. ... дисс. – Т., 2016. – Б. 232.
7. [https://gov.uz/uz/pages/tourism\\_type/](https://gov.uz/uz/pages/tourism_type/). (Murojaat sanasi: 24.03.2023)
8. <https://izoh.uz/uz/word/turizm> (Murojaat sanasi: 20.01.2023)
9. <https://advice.uz/uz/document/2342> (Murojaat sanasi: 22.03.2023)